



RUS VA O'ZBEK TILLARINING QIYOSIY TAHLILI: GRAMMATIKA, LEKSIKA, FONETIKA

Xolmuradova Nigora Faxridinovna

Roman-german tillari fakulteti,
rus filologiyasi kafedrasida stajyor o'qituvchi
nigoraxolmuradova66@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tuzilish jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki til — slavyan guruhiga kiruvchi rus tili va turkiy oilaga mansub o'zbek tilining fonetik, leksik va grammatik o'ziga xosliklari solishtirma metod asosida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida tillarning agglyutinatив (o'zbek tili) hamda flektiv (rus tili) xususiyati, ularga xos kelishik tizimi, fe'llarning nisbat shakllari va gapdagi so'z joylashuvi kabi grammatik tafovutlar ochib berilgan. Shuningdek, fonetika sohasidagi urg'u va singarmonizm, leksik qatlamdagi boshqa tillardan o'tgan so'zlar va ulardagi ma'no farqlari o'rganilgan. Mazkur ishning amaliy ahamiyati ikkinchi til o'qitish usullari, tarjimonlik amaliyoti hamda chog'ishtirma tilshunoslik yo'nalishlarida aniq ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: rus tili, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, agglyutinatив tabiat, suffikslar, flektiv tizim, unlilar reduksiyasi, grammatik jins (rod), tillar tipologiyasi, leksik o'zlashmalar.

KIRISH

Tillarni qiyosiy o'rganish hozirgi tilshunoslikning muhim tarmog'i hisoblanib, u til qurilmasidagi umuminsoniy qonuniyatlarni hamda alohida tillarning farqli belgilarini ochib berishga imkon yaratadi. Dunyoviy integratsiya, ta'limning xalqarolashuvi va ko'chish jarayonlarining kuchayishi sharoitida tillarni, xususan, madaniy, ijtimoiy va siyosiy sathda faol aloqada bo'lgan tillarni qiyosiy o'rganishga talab kundan-kunga oshib bormoqda.

Qiyosiy tilshunoslik (yoki komparativistika) zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli tillarni bir-biri bilan solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganadi. Uning asosiy maqsadi — tillarning genetik (kelib chiqish) aloqalarini aniqlash, til tizimidagi universal qonuniyatlarni ochish va ayrim tillarga xos o'ziga xos xususiyatlarni tavsiflashdan iborat. Qiyosiy tilshunoslik odatda ikki yirik yo'nalishga bo'linadi: tarixiy-qiyosiy tilshunoslik tillarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va qarindoshlik aloqalarini o'rganasa, tipologik-qiyosiy tilshunoslik esa tillarning genetik yaqinligidan qat'i nazar, ularning tuzilish xususiyatlarini solishtiradi va til tiplarini aniqlaydi.



RUS VA O'ZBEK TILLARINING TIPOLOGIYASI

Rus tili tipologik jihatdan flektiv (infleksion) tillar guruhiga mansub bo'lib, bu uning grammatik tuzilishining asosiy xususiyati hisoblanadi. Flektiv tillarda asosiy grammatik vosita — bu bir vaqtning o'zida bir nechta ma'nolarni ifodalay oladigan qo'shimchalar (infleksiyalar). Masalan, "красивый" sifatining -ый qo'shimchasi bir vaqtning o'zida birlik son, erkak rod va bosh kelishik ma'nolarini bildiradi. So'z shakllari qo'shimchalar orqali o'zgarib, grammatik ma'nolar bir qo'shimchada birlashadi; fe'llarda shaxs-son, zamon, nisbat, mayl ifodalanadi; ot, sifat, olmosh va fe'l o'rtasida kelishik (kongruentlik) kuchli.

Rus tilining flektiv tip sifatidagi asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ichki fleksiya (o'zakdagi tovush almashinuvlari) mavjud bo'lib, masalan, собирать – собрать, пеку – печь shakllari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Fuziya (qo'shilish) kuchli bo'lib, qo'shimchalar bilan o'zak chegaralari "xira" bo'ladi. Ko'p ma'noli qo'shimchalar bir qo'shimcha turli grammatik ma'nolarni anglatishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, turlanish va konjugatsiyaning ko'p turlari mavjud bo'lib, morfologik jihatdan bir necha xil paradigmalar kuzatiladi.

Rus tili tipologik jihatdan asosan sintetik tildir, ya'ni grammatik ma'nolar asosan so'z shakllari (qo'shimchalar, o'zgarishlar) orqali ifodalanadi. Biroq, unda analitik elementlar ham mavjud: yordamchi so'zlardan foydalanish ("буду читать" — kelasi zamon), so'z tartibi va intonatsiyaning muhim roli, old qo'shimchalar (predloglar) orqali munosabatlarni ifodalash (в городе, о городе) shular jumlasidandir. Rod (jins) kategoriyasi: uchta rod (мужской, женский, средний) mavjud bo'lib, bu esa sifatlar, olmoshlar, fe'llarning o'tgan zamon shakllari bilan kelishuvni talab qiladi. Kelishiklar tizimi 6 ta kelishikdan (nominativ, genitiv, dativ, akkuzativ, instrumental, prepozitiv) iborat.

O'zbek tili esa tipologik jihatdan agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo'lib, so'zlarga aniq va bir ma'noli qo'shimchalar ketma-ket qo'shiladi. Har bir qo'shimcha faqat bitta grammatik ma'noni ifodalaydi: -lar faqat ko'plik, -ga faqat jo'nalish kelishigini bildiradi. Qo'shimchalar aniq tartib bilan, birin-ketin qo'shiladi: uy + lar + im + ga (uy + ko'plik + egalik 1-shaxs + jo'nalish kelishigi). O'zak o'zgarmasligi o'zbek tilining muhim xususiyati bo'lib, so'zning asosiy ma'no anglatuvchi qismi qo'shimchalar qo'shilganda ham o'zgarmaydi: ish – ishlar – ishlarga.

O'zbek tilining morfologik xususiyatlari quyidagilardan iborat: kelishik tizimi 6 tadan (bosh, qaratqich, jo'nalish, tushum, o'rin-payt, chiqish) iborat; egalik qo'shimchalari shaxs va sonda o'zgaradi (kitobim, kitobing, kitobi...); ko'plik qo'shimchasi -lar barcha so'z turkumlariga qo'shiladi; jins (rod) kategoriyasi yo'q



— bu o'zbek tilini rus, nemis, fransuz tillaridan keskin farqlaydi. Sintaktik jihatdan so'z tartibi qat'iy — asosan SOV (ega – to'ldiruvchi – kesim): Men kitob o'qidim. Kongruentlik (kelishuv) deyarli yo'q — sifat va ot jins, son, kelishikda moslashmaydi: katta uy, katta uylar, katta uyga (sifat o'zgarmaydi).

Ikki tilni misol orqali taqqoslaydigan bo'lsak: ruscha "Я вижу красивую девушку" jumlasida "красивую" (ayol rod, tushum kelishigi, birlik son) "девушку" bilan moslashgan. O'zbekcha "Men chiroyli qizni ko'ryapman" jumlasida esa "chiroyli" o'zgarmaydi, "qizni" esa faqat -ni qo'shimchasi orqali tushum kelishigida turadi. Bu farq ikki tilning tipologik tabiatini yaqqol namoyon etadi.

UNLILAR REDUKSIYASI

Unlilar reduksiyasi deganda nutqda urg'usiz holatda unlilarning qisqarishi, kuchsizlanishi yoki sifatining o'zgarishi tushuniladi. Bu jihatdan rus va o'zbek tillari bir-biridan keskin farq qiladi.

Rus tili fonetikasida reduksiya asosiy qonuniyat hisoblanadi. Urg'usiz unlilar qisqarib, turlicha talaffuz qilinadi: o va a urg'usiz holatda [ʌ] yoki [ə] ga, e va i esa [ɪ] ga yaqinlashadi. Masalan, "молоко" so'zi [mɒlɒ'ko] tarzida talaffuz qilinib, to'rt harf uch xil tovush beradi. Shuningdek, "домá" [dɒ'ma], "забóр" [zɒ'bor] kabi misollar reduksiyaning kuchliligini ko'rsatadi. Demak, rus tilida talaffuz va yozuv o'rtasida katta farq mavjud.

O'zbek tili esa vokalizmga asoslangan til bo'lib, unda unlilar reduksiyasi deyarli kuzatilmaydi. Unlilar urg'uli yoki urg'usiz holatda o'z sifatini saqlaydi. Masalan, "keladi" so'zida hamma unlilar to'liq talaffuz qilinadi, urg'u oxirgi bo'g'inda bo'lsa-da, oldingi bo'g'inlar qisqarmaydi. "Bola", "gapirmoq" kabi so'zlarda ham barcha unlilar aniq va barobar talaffuz etiladi. Kuchsiz reduksiya faqat ayrim shevalarda yoki juda tez nutqda bo'lishi mumkin; adabiy o'zbek tilida esa unlilar barqaror saqlanadi. Bu holat rus tilidan tubdan farq qilib, o'zbek tilida yozilganidek o'qish qoidasini amalga oshiradi.

XULOSA

Qiyosiy tilshunoslik tilshunoslikning muhim va dinamik rivojlanayotgan sohasidir. Uning asosiy yo'nalishlari — qiyosiy-tarixiy, tipologik va kontrastiv — bir-birini to'ldiradi. Qiyosiy tadqiqotlar natijasida nafaqat tillarning kelib chiqishi va tuzilishi haqidagi bilimlar chuqurlashadi, balki amaliy jihatdan til o'qitish, tarjima va lug'atchilik samaradorligi ham oshadi.

Zamonaviy qiyosiy tilshunoslikda kompyuter lingvistikasi va korpus texnologiyalarining rivojlanishi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Katta hajmdagi matnlar ustida statistik tahlillar o'tkazish, avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish va sun'iy intellekt yordamida qiyosiy tadqiqotlar olib borish



bugungi kunning dolzarb yo'nalishlaridir. Rus va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish esa nafaqat ikkala xalqning madaniy aloqalarini mustahkamlashga, balki amaliy tilshunoslik va pedagogika sohasidagi natijalarni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Решетов В. В. "Сравнительная грамматика русского и узбекского языков". — Ташкент: Укитувчи, 1983.
2. Meillet A. "Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka kirish". — Moskva, 2019 (tarjima).
3. Irisqulov M. T. "Tilshunoslikka kirish". — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
4. Comrie B. "Language Universals and Linguistic Typology". — Chicago, 2019.
5. Бондарко Л. В. "Звуковой строй современного русского языка". — Москва: Просвещение, 1977.
6. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". — Toshkent: Talqin, 2005.

